

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI — FAROVON****HAYOTIMIZ KAFOLATIDIR**

Mansurjonova Anora Otabek qizi

Sirdaryo viloyati yuridik texnikumi o‘quvchisi

Telefon raqam: +998995308057

mansurjonovaanora571@gmail.com

Yo‘ldoshev Sherzod Ravshan o‘gli

Sirdaryo viloyati yuridik texnikumi o‘qituvchisi

Telefon raqam: +998994779818

sherzod.yoldoshev.off@gmail.com

Anotatsiya: Maqolada O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining jamiyatdagi o‘rni, Konstitutsiyaning mamlakatimiz islohotlaridagi roli, Konstitutsiyani o‘rganish natijasida unda belgilab qo‘yilgan asosiy prinsplar, inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklar va burchlari, jamiyat va shaxs, davlat hokimiyatining tashkil etilishi va konstitutsiyaga o‘zgartirish kiritish tartibi haqida so‘z ketadi.

Kalit so‘zlar: Konstitutsiya, Konstitutsiyaviy huquq, huquq tizimi, konstitutsiyaviy tuzumi asoslari, inson va fuqarolarning asosiy huquq hamda erkinliklari, ma‘muriy-hududiy va davlat tuzilishi, saylov tizimi.

Аннотация: В статье описывается место Конституции Республики Узбекистан в обществе, роль Конституции в реформах нашей страны, основные принципы, установленные в ней в результате изучения Конституции, основные права, свободы и обсуждаются обязанности народа и гражданина, общества и личности, организация государственной власти и порядок внесения изменений в конституцию.

Ключевые слова: Конституция, конституционное право, правовая система, основы конституционного строя, основные права и свободы человека и гражданина, административно-территориальное и государственное устройство, избирательная система.

ABSTRACT: The article deals with the role of the Constitution of the Republic of Uzbekistan in society, the role of the Constitution in the country's reforms, the basic principles set out in the study of the Constitution, the basic rights, freedoms and duties of



man and citizen, society and the individual, state power and the Constitution. We are talking about the order of change.

Keywords: Constitution, Constitutional law, legal system, foundations of constitutional system, basic human and civil rights and freedoms, administrative territorial and state structure, electoral system.

Yangi O'zbekiston konstitutsiyasi davlatimizning insonparvarligini, adolatli va demokratik jamiyatni rivojlantirishni, inson huquqlarini himoya qilishni, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni va boshqa muhim normalar bilan bir qatorda davlatning tuzulishi, davlat boshqaruv organlari, fuqarolarning huquq va erkinliklari, demokratik tizimini ta'minlash va boshqa bir qator mohiyatli mavzularni o'z ichiga oladi. Jamiyat va davlatning rivojlanishida katta roli bo'lgan bu asosiy hujjat, mamlakat hokimiyatini, inson huquqlarini himoya qilishni, ijtimoiy adolatni ta'minlashni va boshqa muhim maqsadlarni belgilaydi. Binobarin Konstitutsiyaning 54-moddasida qayd etilishicha: "Inson huquq va erkinliklarini ta'minlash davlatning oliy maqsadidir" [1: 1]

Konstitutsiya 155 moddani o'z ichiga olib quyidagi asosiy ma'lumotlarni o'z ichiga oladi:

1. Davlat tuzilishi: Konstitutsiya davlat tuzilishi va birlashgan davlat-hududiy tuzilmalari haqida ma'lumot beradi.

2. Mustaqillik va huquqiy davlat: Konstitutsiya O'zbekiston Respublikasining mustaqillikni ta'kidlaydi va uning huquqiy davlat sifatida shakllanishini belgilaydi.

3. Inson huquqlari: Konstitutsiya inson huquqlarini himoya qilishga va uni muhofaza etishga bag'ishlangan bir qator boshqa qonunlarni o'z ichiga oladi.

4. Davlat hokimiyati tizimi: Konstitutsiya Prezidentning fuqarolar tomonidan saylanganligini, uning vazifalarini, hukumat tuzulishini, parlament faoliyatini shuningdek, hukumat, prokuratura va boshqa boshqaruv organlarining tuzilishi va vazifalari tasvirlaydi.

5. Fuqarolar huquqlari va burchlari: Konstitutsiya fuqarolar huquqlarini va burchlarini belgilaydi. Ya'ni, davlat va inson fuqorolik orqali o'zaro siyosiy-huquqiy



munosabatga kirishar ekan bunda davlatda ham fuqaroda ham o'ziga xos huquq va majburiyatlar vujudga keladi.

Konstitutsiya xalqimiz siyosiy-huquqiy tafakurlarining yorqin ifodasi sifatida demokratik va kuchli fuqarolik jamiyatni barpo etish, aholining erkin va obod turmushini ta'minlash mamlakatning xalqaro maydondagi obro-e'tiborini yuksaltirish hamda barcha sohalarda islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilmoqda. Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi prinsipi shuni anglatadiki, bunda barcha joriy qonunlar va meyoriy huquqiy hujjatlar Konstitutsiya asosida va unga muvofiq bo'lishi talab etiladi.

Ulug' bobokalonimiz Amir Temur aytganlaridek "Qayerda qonun hukmronlik qilsa shu yerda erkinlik bo'ladi" [2:2.]. Demak qayerda qonun ustivorlik qilsa o'sha yerda erkinlik demokratiya bo'ladi. Binobarin davlatimiz asosiy qonuni xalqimizning milliy o'ziga xosligi, urf-odat va an'analari, o'zbek davlatchiligi rivojida tarixiy tajribalarimiz xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoidalari rivojlangan demokratik davlatlarning ilg'or tajribalarini hisobga olgan holda ishlab chiqilganligi bilan ajralib turadi. Jumladan: "fuqarolarning munosib hayot kechirishini, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni ko'p millatli jonajon O'zbekistonimizning farovonligi va gullab-yashnashini ta'minlashni maqsad qilgan holda ushbu Konstitutsiyani qabul qilamiz va e'lon qilamiz" [3: 1] deya yuritiladi Konstitutsiyamizning muqaddimasida.

Mamlakatimizning amaldagi Konstitutsiyasi sof demokratik ruhda yaratilgan bo'lib, u milliy huquqiy tizimining poydevoridir. Konstitutsiyaning 14-moddasida "Davlat o'z faoliyatini inson farovonligi va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida qonuniylik, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari asosida amalga oshiradi" [4:1] deya belgilab qo'yilgan. Yurtimiz taraqqiyoting yangi bosqichida xalqimizning tinch va farovon hayoti uchun ishonchli kafolat bo'lgan bosh qomusimizning bugungi davr takablariga mos holda, eng muhimi va fikri hamda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning bosh maqsadi bo'lgan "Inson—Jamiyat—Davlat" tamoyili asosida haqiqiy xalq konstitutsiyasiga aylantirildi. Barcha fuqarolar konstitutsiyada belgilab qo'yilgan burchlarni bajaradilar va shu bilan birga davlat o'z fuqarolarini huquq va erkinliklarini



himoya qiladi va kafolatlaydi. Inson va davlat organlarining o'zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdag barcha ziddiyatlar inson foydasiga talqin etiladi. Davlat o'z fuqarolarini erkin professional va oiliy ta'limda o'qish, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini ta'minlaydi. Malakali tabiiy xizmatdan foydalanishga sharoit yaratadi. Qariganda, mehnat layoqatini yo'qotganda, ishizlikda, shuningdek boquvchisini yo'qotganda ijtimoiy yordam beradi. Shuningdek fuqarolar ham o'z majburiyatlariga ega. Atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga, O'zbekiston Respublikasini himoya qilishga majbur ekanligi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida belgilab qo'yilgan.

Xulosa qilib aytganda O'zbekiston Respublikasida Konstitutsiya davlatning asosiy qonuni hisoblanadi. Konstitutsiya O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy huquqining asosiy manbasi hisoblanadi. Konstitutsiyaviy huquq fani esa O'zbekiston Respublikasi huquq tizimining asosi (negizi)ni tashkil etadi va barcha huquq tarmoqlari, tizimi va huquq normalari Konstitutsiyaviy huquq normalariga muvofiq bo'lishini taqozo etadi. Fuqarolar Konstitutsiyani o'rganish natijasida unda belgilab qo'yilgan asosiy prinsplar, inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklar va burchlarini, jamiyat va shaxs, davlat hokimiyatining tashil etilishi va konstitutsiyaga o'zgartirish kiritish tartibini bilib oladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. "O'zbekiston" 2023. 34-bet
2. O.T. Husanov. Konstitutsiyaviy huquq: darslik. –Toshkent: 2020. – 400 b.